

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

**АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ**

**AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY**



**ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL**

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2026



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (JAMK University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n, katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n, professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 911 sahifa.
E'lon qilishga 2026-yil 31-martda ruxsat berildi.



**“AGROBIZNES, FAN VA
TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNALI**

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

SABIROV XASAN NUSRATOVICH, YUNUSOV BEKZOD XAYRUBLOYEVICH O'zbekiston bank tizimida yashil kreditlashni rivojlantirishning institutsional asoslari.....	13
SAPAYEV MAXSUDBEK KARIMOVICH Davlat budjeti ijrosini ta'minlashda soliq nazoratini amalga oshirish yo'nalishlari.....	20
ALLAYAROVA MASTURA KUDRATULLAYEVNA O'zbekiston Respublikasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimining shakllanish asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	26
АКАБИРОВА ДИЛОРО НИГМАТОВНА, АЗИМБОЕВА ШАХОДАТ ХАМДАМ ҚИЗИ Экономическая оценка внедрения агротехнологий (Agtech) в сельское хозяйство Республики Узбекистан (на примере Хорезмской области).....	34
ASHUROVA MAFTUNA ORTIQ QIZI Xizmatlar sohasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini shakllantirish jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	39
XO'JAMURODOVA ODINAXON KOMILJON QIZI Xususiy sog'liqni saqlash tizimida boshqaruvni takomillashtirish yo'nalishlari.....	46
ULUG'BEKOV SARDORBEK ULUG'BEKOVICH Inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining konseptual asoslari.....	54
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH Raqamli bank xizmatlari orqali moliyaviy samaradorlikni oshirishga doir xorijiy tajribalar tahlili.....	62
ASHUROVA MAFTUNA ORTIQ QIZI Xizmatlar sohasida investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish xorij tajribasi va uni mamlakatimizda qo'llash masalalari.....	69
MULLAYEVA MEXRANGIZ AXTAM QIZI Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish omillari va rivojlanish istiqbollari.....	75
ISMOILOVA NIGORAXON MAHMUDJON QIZI, IBROXIMOV MUHAMMADSODIQ XOKIM O'G'LI O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 2021–2025 yillardagi dinamikasi: statistik tahlil va iqtisodiy o'sish tendensiyalari.....	83
BARATOV SAMARIDDIN ABDUKAHAROVICH Inson kapitali rivojlanishini baholashga ta'siri va uslubiy yondashuvlar bo'yicha ko'rsatkichlari.....	93

INSON KAPITALI VA KREATIV QATLAM KATEGORIYALARINING KONSEPTUAL ASOSLARI

ULUG'BEKOV SARDORBЕК ULUG'BEKOVICH

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Sardorulugbekov76@gmail.com

ORCID:0009-0005-6043-8551

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson kapitali va kreativ qatlam tushunchalarining nazariy hamda konseptual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida inson kapitalining iqtisodiy o'sish, innovatsion rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kreativ qatlamning shakllanishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri hamda bilim, malaka, ijodkorlik va intellektual salohiyat bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Maqolada turli olimlarning yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida inson resurslaridan samarali foydalanish hamda kreativ salohiyatni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, kreativ qatlam, bilimga asoslangan iqtisodiyot, intellektual salohiyat, innovatsiya, ijodkorlik, iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и концептуальные основы понятий человеческого капитала и креативного класса. Исследование подчеркивает роль человеческого капитала в обеспечении экономического роста, инновационного развития и конкурентоспособности. Также раскрывается формирование креативного класса в условиях современной экономики, его влияние на социально-экономическое развитие и неразрывная связь со знаниями, навыками, креативностью и интеллектуальным потенциалом. В статье представлен сравнительный анализ подходов различных ученых и обоснована взаимосвязь категорий человеческого капитала и креативного класса. Результаты исследования служат для формулирования научных выводов об эффективном использовании человеческих ресурсов и развитии креативного потенциала в экономике, основанной на знаниях.

Ключевые слова: человеческий капитал, креативный класс, экономика, основанная на знаниях, интеллектуальный потенциал, инновации, креативность, экономическое развитие, конкурентоспособность.

Abstract. This article analyzes the theoretical and conceptual foundations of the concepts of human capital and creative class. The research highlights the role of human capital in ensuring economic growth, innovative development and competitiveness. It also reveals the formation of the creative class in the conditions of the modern economy, its impact on socio-economic development and its inextricable link with knowledge, skills, creativity and intellectual potential. The article provides a comparative analysis of the approaches of various scientists and substantiates the interrelationship of the categories of human capital and creative class. The results of the research serve to draw scientific conclusions on the effective use of human resources and the development of creative potential in a knowledge-based economy.

Keywords: human capital, creative class, knowledge-based economy, intellectual potential, innovation, creativity, economic development, competitiveness.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida moddiy resurslardan ko'ra inson omiliga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda bilim, malaka, innovatsion fikrlash va ijodkorlik asosiy strategik resurs sifatida namoyon bo'lib, ular inson kapitali tushunchasi orqali ifodalanadi. Inson kapitalining sifati va samaradorligi mamlakatlarning barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi hamda ijtimoiy farovonligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarda "kreativ qatlam" (creative class) tushunchasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu qatlam jamiyatda yangi g'oyalar yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirish orqali taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kreativ qatlam vakillari yuqori intellektual salohiyat, mustaqil va nostandart fikrlash, ijodiy yondashuv hamda moslashuvchanlik kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning o'zaro aloqadorligini chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kreativ qatlam inson kapitalining eng faol va samarali qismi sifatida namoyon bo'ladi hamda innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ushbu tushunchalarning mazmuni, chegaralari va konseptual asoslari borasida ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni tizimli tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining nazariy-konseptual asoslarini tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tutgan o'rnini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot natijalari inson kapitalini rivojlantirish va kreativ salohiyatdan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda inson kapitali tushunchasi asosan iqtisodiy o'sish va innovatsion rivojlanish omili sifatida talqin etiladi. T.Shults, G.Bekker, J.Mincer kabi olimlar inson kapitalini ta'lim, malaka va sog'liq orqali shakllanuvchi iqtisodiy resurs sifatida asoslab bergan. R.Florida tomonidan ilgari surilgan "kreativ qatlam" nazariyasida esa ijodkorlik, bilim va intellektual faoliyat zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlar inson kapitalining sifat jihatdan yangi bosqichini ifodalab, kreativ salohiyatning iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida inson kapitalini rivojlantirish masalalari milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, raqobatbardoshlik va innovatsion taraqqiyot bilan bog'liq holda yoritilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish hamda yoshlarning



ijodiy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish inson kapitalini mustahkamlashning asosiy omillari sifatida ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyot va kreativ qatlamning shakllanishiga oid izlanishlar inson kapitalining zamonaviy mazmunini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda inson kapitali va kreativ qatlam tushunchalarini o'rganishda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Turli nazariy yondashuvlar umumlasmalirilib, inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Tizimli yondashuv asosida ularning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalari o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kreativ qatlam inson kapitalining sifat jihatdan rivojlangan, innovatsion va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi qismi hisoblanadi. Inson kapitali umumiy bilim, ko'nikma va salohiyatni ifodalasa, kreativ qatlam ushbu resurslarning amaliy va ijodiy namoyon bo'lish shaklini aks ettiradi.

1-jadval

Inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining asosiy tavsiflari

Ko'rsatkichlar	Inson kapitali	Kreativ qatlam
Asosiy mazmuni	Bilim, malaka, sog'liq, tajriba	Ijodkorlik, innovatsion fikrlash
Rivojlanish manbai	Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik	Bilim + ijod + intellektual erkinlik
Iqtisodiyotdagi roli	Mehnat unumdorligini oshirish	Innovatsiya va yangi qiymat yaratish
Natijaviylik	Barqaror iqtisodiy o'sish	Raqobatbardosh va innovatsion o'sish

1-jadval ma'lumotlari asosida aniqlanishicha, kreativ qatlam inson kapitalining oddiy tarkibiy qismi emas, balki uning eng faol va samarali segmenti sifatida namoyon bo'ladi. Aynan kreativ qatlam bilimlarni iqtisodiy natijaga aylantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tahlil jarayonida inson kapitalining sifat darajasi oshgani sari kreativ qatlam ulushi ham ortib borishi aniqlandi. Bu holat innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini rivojlantirish strategiyasini qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval

Inson kapitalining rivojlanish darajasi va kreativ qatlam shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlik

Inson kapitali darajasi	Tavsifi	Kreativ qatlam holati
Past	Asosiy bilim va ko'nikmalar	Cheklangan, sust rivojlangan
O'rta	Kasbiy malaka va tajriba	Qisman shakllangan
Yuqori	Ilmiy, texnologik va ijodiy salohiyat	Faol va barqaror rivojlangan

Natijalar shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar (ta'lim, ilm-fan, innovatsiya muhiti) nafaqat mehnat resurslari sifatini oshiradi, balki kreativ qatlamning kengayishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishda rivojlanishini ta'minlaydi. Umuman olganda, olib borilgan tahlil inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarini alohida emas, balki yagona tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslab berdi. Tadqiqot natijalari bilimga asoslangan va innovatsion iqtisodiyot sharoitida kreativ salohiyatni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Empirik tadqiqot inson kapitali darajasi va kreativ qatlam rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida indikatorlar tizimi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda inson kapitali mustaqil o'zgaruvchi, kreativ qatlam rivojlanishi esa bog'liq o'zgaruvchi sifatida qaraldi. Tahlil jarayonida ta'lim, ilmiy salohiyat va innovatsion faollik asosiy omillar sifatida tanlab olindi.

3-jadval

Inson kapitalini ifodalovchi asosiy indikatorlar (shartli ma'lumotlar)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Past daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja
Oliy ma'lumotlilar ulushi	foiz	18	32	48
Ta'limga investitsiyalar ulushi	YAIMga nisbatan foiz	2,1	4,0	6,2
Ilmiy xodimlar soni	10 ming kishiga	25	54	90
Kasbiy malaka indeksi	ball (0-100)	42	67	85

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, inson kapitali darajasi oshgani sari ta'lim va ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari sezilarli ravishda yaxshilanadi. Ayniqsa, oliy ma'lumotlilar ulushi va ilmiy xodimlar sonining ortishi kreativ faoliyat uchun zarur bo'lgan intellektual muhitni shakllantiradi.

4-jadval

Kreativ qatlam rivojlanish indikatorlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Past daraja	O'rta daraja	Yuqori daraja
Kreativ sohalarda bandlik	foiz	6	11	19
Patent va startaplar soni	1 mln aholiga	8	21	47
Innovatsion mahsulotlar ulushi	foiz	4	9	17
Kreativ mehnat unumdorligi indeksi	ball (0-100)	38	62	88

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, inson kapitali yuqori bo'lgan sharoitda kreativ qatlam miqdor va sifat jihatdan rivojlanadi. Innovatsion mahsulotlar ulushining ortishi kreativ faoliyatning iqtisodiy natijaga aylanishini ko'rsatadi.

Inson kapitali va kreativ qatlam o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida chiziqli regressiya modeli qo'llanildi:

$$KQ = \alpha + \beta_1 TD + \beta_2 IS + \beta_3 IF + \varepsilon$$

bu yerda:

KQ – kreativ qatlam rivojlanish indeksi
TD – ta’lim darajasi (oliy ma’lumotlilar ulushi)
IS – ilmiy salohiyat (ilmiy xodimlar soni)
IF – innovatsion faollik (patent va startaplar)
 ε – tasodifiy xatolik.

5-jadval

Regressiya natijalari (shartli)

O'zgaruvchilar	Koeffitsient (β)	t-statistika	Ahamiyat darajasi
Doimiy had (α)	5,12	2,01	0,05
Ta'lim darajasi (TD)	0,48	4,32	0,01
Ilmiy salohiyat (IS)	0,36	3,87	0,01
Innovatsion faollik (IF)	0,41	4,05	0,01
R^2	0,72		

Regressiya natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha mustaqil o'zgaruvchilar kreativ qatlam rivojlanishiga statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Model determinatsiya koeffitsienti ($R^2 = 0,72$) inson kapitaliga oid tanlangan indikatorlar kreativ qatlam rivojlanishining 72 foizini tushuntirib bera olishini anglatadi. Eng yuqori ta'sir ta'lim darajasi va innovatsion faollik omillariga to'g'ri kelmoqda.

O'tkazilgan empirik tahlil va regressiya modeli natijalari inson kapitali va kreativ qatlam o'rtasida kuchli va barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi kreativ qatlamni shakllantirish va kengaytirishning asosiy sharti hisoblanadi. O'z navbatida, kreativ qatlam innovatsion iqtisodiyotning muhim drayveri sifatida iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Empirik tahlil natijalariga asoslanib, inson kapitali va kreativ qatlamni rivojlantirish bo'yicha bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, ta'lim tizimini takomillashtirish kreativ qatlam rivojida eng muhim omil sifatida ko'rsatildi. Oliy ta'lim qamrovini kengaytirish va kreativ, tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish inson kapitali sifatini oshiradi va kreativ kadrlar sonini ko'paytiradi. Ilmiy salohiyatni mustahkamlash ham kreativ qatlamni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlar hamkorligini kuchaytirish, yosh olimlarni rag'batlantirish orqali ilmiy-innovatsion muhit rivojlanadi va yangi g'oyalarni iqtisodiy qiymatga aylantiradigan kreativ qatlam kengayadi. Shu bilan birga, innovatsion faollikni rag'batlantirish maqsadida startaplar, texnoparklar va inkubatorlar faoliyati qo'llab-quvvatlanishi lozim, bu esa innovatsion mahsulotlar va intellektual mulk hajmini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, mehnat bozorini modernizatsiya qilish kreativ sohalarda bandlikni oshirish va mehnat unumdorligini yaxshilash imkonini beradi. Kreativ industriyalar (IT, dizayn, media) uchun mos mehnat bozori infratuzilmasini yaratish bilan hududiy va soha bo'yicha kreativ salohiyatning notekis

taqsimlanishi kamayadi. Shu bilan birga, institutsional muhitni yaxshilash orqali intellektual mulkni himoyalash va erkin ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy mexanizmlar yaratish kreativ tashabbus va investitsiyalarni faollashtiradi.

Oxir-oqibat, hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash orqali kreativ salohiyatning mintaqalar bo'yicha notekis taqsimlanishi muammosi bartaraf etilishi mumkin. Hududlarda kreativ markazlar va ta'lim klasterlarini tashkil etish inson kapitalini yanada rivojlantiradi, shuningdek, kreativ qatlamning barqaror kengayishiga hissa qo'shadi. Shu tarzda, jadval asosida ishlab chiqilgan takliflar kompleks tarzda amalga oshirilsa, ular nafaqat inson kapitali sifatini oshirish, balki kreativ qatlamni shakllantirish va innovatsion iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

6-jadval

Inson kapitali va kreativ qatlamni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar

Yo'nalish	Muammo va asos	Taklif mazmuni	Kutilayotgan natija
Ta'lim tizimini rivojlantirish	Ta'lim darajasi kreativ qatlam rivojiga eng kuchli ta'sir ko'rsatmoqda ($\beta=0,48$)	Oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, kreativ va tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini joriy etish	Inson kapitali sifati oshadi, kreativ kadrlar soni ko'payadi
Ilmiy salohiyatni mustahkamlash	Ilmiy xodimlar soni va kreativ faollik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud ($\beta=0,36$)	Ilmiy tadqiqot institutlari va universitetlar hamkorligini kuchaytirish, yosh olimlarni rag'batlantirish	Ilmiy-innovatsion muhit rivojlanadi, kreativ qatlam kengayadi
Innovatsion faollikni rag'batlantirish	Innovatsion faoliyat kreativ qatlam rivojida muhim omil ($\beta=0,41$)	Startaplar, texnoparklar va inkubatorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash	Innovatsion mahsulotlar va intellektual mulk hajmi oshadi
Mehnat bozorini modernizatsiya qilish	Kreativ sohalarda bandlik yetarli darajada shakllanmagan	Kreativ industriyalar (IT, dizayn, media) uchun mos mehnat bozori infratuzilmasini yaratish	Kreativ bandlik va mehnat unumdorligi oshadi
Institutsional muhitni yaxshilash	Kreativ faoliyat uchun qulay muhit yetishmaydi	Intellektual mulkni himoyalash, erkin ijodiy muhitni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish	Kreativ tashabbuslar va investitsiyalar faollashadi
Hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash	Kreativ salohiyat hududlar bo'yicha notekis taqsimlangan	Hududlarda kreativ markazlar va ta'lim klasterlarini tashkil etish	Hududiy inson kapitali va kreativ qatlam rivojlanadi

XULOSA

Ushbu maqolada inson kapitali va kreativ qatlam kategoriyalarining konseptual asoslari, ularning iqtisodiyotdagi roli va o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, inson kapitali va kreativ qatlam bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi: inson kapitali umumiy bilim, malaka va salohiyatni ifodalasa, kreativ qatlam ushbu resurslarni amaliy va innovatsion yo'nalishda ishlab chiqarishga yo'naltiradi.

Empirik tahlil va regressiya modeli natijalari inson kapitali darajasi oshgani sari kreativ qatlamning kengayishi va faolligi ham ortishini ko'rsatdi. Ta'lim darajasi, ilmiy salohiyat va innovatsion faollik kreativ qatlam rivojida eng muhim omillar sifatida ajralib turadi. Shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar – ta'lim tizimini takomillashtirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash, innovatsion faollikni rag'batlantirish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish va institutsional muhitni yaxshilash – inson kapitali va kreativ qatlamni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot inson kapitali va kreativ qatlamning iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyatini ochib berdi. Olingan natijalar bilimga asoslangan iqtisodiyot sharoitida kreativ salohiyatni rivojlantirish va inson resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalarni ishlab chiqishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. — New York: Columbia University Press, 1964. — 242 p.
2. Florida R. L. The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life. — New York: Basic Books, 2002. — 416 p.
3. Mincer J. Studies in Human Capital. — Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 1993. — 419 p.
4. Schultz T. W. Investment in Human Capital // American Economic Review. — Indianapolis: Bobbs-Merrill, 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.
5. Klein P. G., Cook M. L. T.W. Schultz and the Human-Capital Approach to Entrepreneurship // Applied Economic Perspectives and Policy. — Vol. 28, Issue 3, 2006. — P. 344–350.
6. Qodirov A. Inson kapitali va uning samaradorligini oshirish masalalari — T.: Ilm-fan, 2018. — 136 p.
7. Rustamov S. Mehnat resurslarini boshqarish va kreativ iqtisodiyot // Iqtisodiyot va innovatsiya, 2019. — No. 2. — P. 45–53.
8. Xasanov J. Kreativ qatlam tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi o'rni — T.: Fan va texnologiya, 2021. — 92 p.
9. Olimov R., Tashpulatov B. Inson kapitali va innovatsion rivojlanish // O'zbekiston iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. — 2020. — No. 4. — P. 12–25.

10. Ergashev D. Kreativ iqtisodiyotda inson kapitali va innovatsion salohiyat — T.: Movarounnahr, 2022. — 148 p.
11. Ulug'bekov, S. (2024). Kreativ iqtisodiyot fenomeni. Studying the progress of science and its shortcomings, 1(3), 93-96.
12. Ulugbekov, S. (2023). Emerging trends and new approaches in international marketing. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(10), 188-190.
13. Ulug'Bekov, S. (2023). Blokcheyn texnologiyasi va uning qo'llanilish sohalari. Экономика и социум, (3-2 (106)), 308-313.
14. Улуғбеков, С. У. (2024). Миллий иқтисодиётда инновацион инфратузилмасининг шаклланиши ва ривожланиши. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(5), 144-153.
15. Ulug'bekovich, U. B. S. (2026). Raqamli transformatsiya va sun'iy intellektning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni: strategik tahlil va istiqbollari. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 4(1), 250-253.
16. Ulug'bekov, S. (2024). Kreativ iqtisodiyot fenomeni. Studying the progress of science and its shortcomings, 1(3), 93-96.

2026-yil, mart, №3-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami:**

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy